

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA ADABIY TA‘SIR MASALASI

(A.S.Pushkin va T.Adashboyev ijodi misolida)

Z.Mamatalimov

Alfraganus universiteti dotsenti,

F.Sadiyeva

Alfraganus universiteti 3-bosqich talabasi

Annotasiya: *Maqolada rus shoiri, yangi rus adabiyotining asoschisi, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri A.S. Pushkinning “Baliqchi va baliq haqida ertak” hamda o‘zbek bolalar adabiyotining yetuk namoyandasi, bolalar dunyosini yumor bilan qorishiq holda nozik ifodalaydigan shoir T. Adashboyevning “Oltin yolli tulpor qissasi” asarlari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur ertaklarning yosh avlod kamolotida tutgan o‘rni, tarbiyaviy ahamiyatiga e‘tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *parallelizm, dalillash, obraz, syujet, parodiya, ertak, qissa, qiyos, epizod*

Avvalo, “bolalar adabiyoti” deganda ko‘z o‘ngimizda nimalar namoyon bo‘ladi? Bolalar adabiyotga qaysi yosh davridan oshno bo‘lishadi? Albatta, maktabgacha bo‘lgan ta‘lim davrida, hattoki undan ham ertaroq davrda ota-onalarining, bobobuvilarining ertaklari, topishmoqlari, afsonalari, maqollari, ibratli hikoyalari orqali o‘zlari sezmaganda holda adabiyotga mehr qo‘ya borishadi. Maktabgacha yoki kichik maktab yoshida og‘zaki eshitib, ibrat olib, ta‘sirlanib, xulosa chiqarib egallangan tarbiya bir umrga xotiralarda va qalbdan muhrlanib qoladi. Shuning uchun kichikintoylarning yosh xususiyati, tarbiyaviy ahamiyati inobatga olingan holda to‘g‘ri tanlangan ijod namunalari murg‘ak qalblarda adabiyotga bo‘lgan ilk, go‘zal, beg‘ubor “kurtaklar” nish urishiga zamin yaratadi. Rus adabiyotining yetuk vakili A.S.Pushkinning “Baliqchi va baliq haqida ertak” hamda O‘zbekiston xalq shoiri Tursunboy Adashboyevning ertak-dostonlari xuddi shunday ezgu maqsadlarni o‘zida mujassam etgan asarlar sirasiga kiradi.

Ma‘lumki, A.S.Pushkinning nafis so‘zga, she‘riyatga, adabiyotga mehr qo‘yishida enagasi Arina Rodionovna aytib bergan rus xalq og‘zaki ijodi namunalari ta‘siri, ayniqsa, kattadir. Bu ta‘sir, bu saboq keyinchalik shoirga folklor ta‘sirida ajoyib she‘riy ertaklar yaratishiga turtki bo‘ldi. Mana ikki asrdan oshiqroq vaqt o‘tibdi hamki, “Shoh Saltan haqida ertak”, “O‘lik bekach va yetti bahodir haqida ertak”. “Oltin xo‘roz haqida ertak”, “Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak” dunyo bolalarining sevimli asarlari sifatida o‘z badiiy qimmatini saqlab kelmoqda.

“Baliqchi va baliq haqida ertak” asari ochko‘zlik, yebto‘ymaslik, xunuk nafsning ayanchli oqibatlarini kishini falokatga yetaklashidan ogoh etuvchi pandnoma

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

sifatida boshqa xalqlar singari o‘zbek o‘quvchisiga ham manzur bo‘ldi.

O‘zbek adabiyotida ham bu ertak ta’sirida bir qator asarlar yaratildi. T.Adashboyevning “Oltin yolli tulpor qissasi” ertagi mana shunday asarlar sirasiga kiradi. Biz mazkur maqolada yuqoridagi ikki ertakni o‘zaro qiyoslagan holda adabiy ta’sir masalasiga diqqat qaratmoqchimiz.

“Baliqchi va baliq haqida ertak” dengiz bo‘yidagi yerto‘lasida o‘ttiz uch yil birgalikda halol mehnat qilib umr kechirgan chol-kampirning hayot kechinmalari tasviri bilan boshlanadi:

O‘tgan chog`da dengiz bo`yida,
Chol va kampir umr surgandi,
Yerto`lada – eski uyida
O`ttiz uch yil birga turgandi.
Chol to`r solib ovlarkan baliq,
Kampir esa yigirar urchuq...¹

Ertak ekspozitsiyasidan o‘quvchi voqealar yuz bergan vaqt (o‘tgan choq). makon (dengiz bo‘yi), qahramonlar (chol va kampir), ularning maishiy hayoti (yerto‘la – eski uy), kasb-kori (baliqchi; “yigirar urchuq”) bilan tanishtiriladiki, bu o‘qirmanni kelgusida yuz berishi kutilayotgan voqealarga ruhan tayyorlaydi.

T.Adashboyevning “Oltin yolli tulpor qissasi” ertagi voqealari esa muallif tug‘ilib-o‘sgan Olabuqa qishlog‘idan o‘n chaqirim uzoqlikda joylashgan Tulporko‘l bilan bog‘lanadi. Chotqol tizma tog‘larining etagiga tutash Tulporko‘lning tabiati – hayvonoti, nabototi tasvirlanar ekan, ertakning manbasi yodga olinadi:

Ushbu ertak momolardan
Meros bo‘lib qolgandir.
Tulporko‘lning afsonasi
Es-hushimni olgandir.²

Demak, bu ertak og‘zaki ijod mahsuli. “Momolardan meros bo‘lib qolgan”idan ham anglashiladiki, qachonlardir to‘qilib, og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan mazkur folklor namunasi yaratilish tarixi olis o‘tmishga borib taqaladi. Mo‘jaz boshlanmadan so‘ng asosiy qismga o‘tiladi:

Emish bir chol Chotqol yoqdan
Ovul tomon kelarkan.
Aytib bilgan qo‘shig‘ini
Baytalida yelarkan.

¹ Pushkin A.S. Ertaklar (Mirtemir tarjimasini). – Toshkent: Cho‘lpon, 2010. – B.56.

² Adashboyev T. Orzularim – qo‘sh qanotim. – Toshkent: Sharq, 2003. – B.168.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Tulpor ko`lga duch kelibdi

Ayni peshin chog`ida

Uloviga dam beribdi

Yam-yashil qirg`o`gida...³

Ko`rinib turibdiki, ikki ertakda ham voqealar suv (dengiz; ko`l) bilan bog`liq holda kechadi. Ikkala ertakda ham yetakchi qahramon oqko`ngil, sodda, samimiy chol. Asar voqealari rivojiga turtki beruvchi mo`jiza ham aynan ular bilan sodir bo`ladi.

Xalq dostonlarida, sehri ertaklarda sodir bo`ladigan g`ayritabiiy voqealar, odatda, qahramonning ko`z o`ngida to`g`ridan to`g`ri yuz bermaydi. Sehrgar, ko`pincha, unga “Ko`zingni yum!”, “Teskari o`grilib tur!” deb buyruq beradiki, natijada mo`jizaning sodir bo`lish jarayoni sirliligicha qoladi. Pushkin ertagida chol Oltin baliqdan so`ragan narsalarining amalga oshganini uyiga borgach biladi. T.Adashboyev esa bu o`rinda mo`min-musulmonlarning ibodat jarayoni – namozdan unumli foydalanadi. Ma`lumki, namozxon ibodat davomida butun diqqat-e`tiborini Yaratuvchiga qaratib, bir soniya ham chalg`imaslikka harakat qiladi.

Maysa uzra chakmonini

Asta yozib tashlabdi.

Kunbotarga yuzlanib chol

Namoz o`qiy boshlabdi.

Shu payt ko`lning o`rtasidan

Oltin yolli ot chiqib,

Ko`zni ochib yumgunchayin

Sohil tomon bot chiqib,

Ko`kka sapchib pishqirdi-da,

Ko`zi yonib, shaylanib

Bo`z baytalning atrofidan

O`tdi uch bor aylanib.

Kishnog`iga tog`-u toshlar

Sado berar uzmasdan...

Cho`pon esa beg`am, befarq

Ibodatin buzmasdan –

Turib boqsa duldul tulpor

Sho`ng`idi ko`l qatiga

³ O`sha kitob. – B. 168

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Kalimasin aytib bobo

Qamchi bosdi otiga...⁴

Har ikkala asarda ham ochko`z, yepto`ymas, nafsiga qul kampir obrazi uchraydiki, ular muallifga kontrast yaratish, voqealar rivojiga turtki berishda qo`l keladi. Garchi “Oltin yolli tulpor qissasi”da kampir birgina o`rinda tilga olingan bo`lsa ham, uning yana bitta oltin yolli toychoqqa ega bo`lish niyatida cholni qo`yarda-qo`ymay Tulporko`lga jo`natishi zimnida bu obrazning ichki olami yaqqol namoyon bo`ladi. “Baliqchi va baliq haqida ertak”da yangi tog`oraga ega bo`lishni orzu qilgan kampirning nafs hakalak otgandan otaveradi. Dastlab tog`ora, uyga ega bo`lgan kampir begoyim, malika, dengiz podshosi bo`lishni xohlab cholni qayta-qayta Oltin baliq yoniga jo`natadi. Kampirning shum niyati kabi yovuzligi ham ortib boraveradi. Atrofidagi oqsochlarga, o`z choliga qilgan zug`umlari, chek-chegarasiz tantiqliklari uning qiyofasini yanada yovuzlashtira boradi. Dengizning notinch chayqalishi, har gal chol baliqni yo`qlab borganida o`z tusini o`zgartirishi o`quvchining qalbiga ham g`ashlik solib, yuz berajak katta falokatdan ogohlantiradi.

“Oltin yolli tulpor qissasi”da kampirning qistovi bilan Tulporko`lga yo`l olgan cholni o`quvchi umuman boshqa qiyofada ko`radi. Birinchi lavhada oddiy, samimiy, xudojo`y ko`ringan chol ko`ngliga nafs havosi yugurgach, keyingi epizodda boshqa odamga aylanadi:

Avji peshin, atrof sokin,

Ko`lda oshufta holat.

Yozdi shoshib chakmonini

Olib-olmay tahorat.

Chol, shunchaki nomi uchun

Namoz o`qib o`tirar.

Oltin yolli ot tasvishi

Yuragini o`pirar...⁵

T.Adashboyev qalamiga mansub ertakda yana bitta oltin yolli toychoq olish ilinjida qo`lidagi naqdidan ham ayrilib qolgan chol-kampirning ayanchli holati voqeaga yakun yasaydi. Pushkin ertagida esa yerto`la bo`sag`asida teshik tog`ora qarshisida o`tirgan kampir holati o`quvchiga bor haqiqatni oshkor qiladi. O`quvchi har ikki ertak tugallanmasidan qanoat hosil qiladi. Bu ertak qahramonlari tushib qolgan holatga nisbatan achinish bo`lsa, boshqa tomondan, ochko`zlik, nafs buzuvchilikka nisbatan chiqarilgan hayotiy hukmning adolatligidan rizolikdir.

⁴ Adashboyev T. Orzularim – qo`sh qanotim. – Toshkent: Sharq, 2003. – B.169.

⁵ Adashboyev T. Orzularim – qo`sh qanotim. – Toshkent: Sharq, 2003. – B.170.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adashboyev T. Orzularim – qo`sh qanotim. – Toshkent: Sharq, 2003.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O`qituvchi, 2013.
3. Pushkin A.S. Ertaklar (Mirtemir tarjiması). – Toshkent: Cho`lpon, 2010.